

RANGTASVIR SAN'ATIDA RANG VA SHAKL UYG‘UNLIGI

Maxammadiyeva Marjona Najmuddin qizi,

San'atshunoslik fakulteti

Rangtasvir dastgohli yo 'nalishi talabasi

Qarshi davlat universiteti,

Ilmiy rahbar: Ibragimov Rustam Qudratovich

Annotatsiya: *Ushbu maqolada rangtasvir san'atida rang va shakl uyg‘unligining ahamiyati, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda badiiy ifoda vositasi sifatida tutgan o‘rni yoritib berilgan. Rang va shakl uyg‘unligi rassomning g‘oyasini to‘liq ifodalash, tomoshabinda estetik zavq va ma’naviy hissiyot uyg‘otishda muhim rol o‘ynashi ta’kidlangan. Shuningdek, maqolada ranglar va shakllar uyg‘unligini yaratish usullari, ularning kompozitsiyadagi o‘rni hamda san’at asarlarida qanday qo‘llanishi nazariy va amaliy misollar asosida ochib berilgan.*

Kalit so‘zi: *Rangtasvir san’ati, rang uyg‘unligi, shakl, kompozitsiya, badiiy ifoda, estetik ta’sir, tasviri san’at, rassomlik mahorati.*

Kirish:

Rangtasvir san'atida rang va shakl uyg‘unligining ahamiyati


Tarixda ko‘plab rassomlar o‘z ijodida rang va shakl uyg‘unligiga alohida ahamiyat berishgan. Aynan rang va shakl orqali asarining mazmuni va hissiyotini kuchaytirgan. Quyida ana shunday mashhur rassomlar va ularning uslublari haqida bat afsil ma'lumot keltiraman. Rangtasvir san'atida rang va shakl uyg‘unligi — bu asardagi ranglar va shakllarning bir-birini to‘ldirib, badiiy mazmun va go‘zallikni yanada kuchaytirib turishidir. Bu uyg‘unlik rassomning g‘oyasini yanada aniq va ta’sirchan ifodalashiga xizmat qiladi. Rang va shakl uyg‘unligi – san’atning estetik kuchi rassomning badiiy fikri va g‘oyasini obrazli ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Ular orqali asarning umumiyligi mazmuni, ruhiy holati, kayfiyati va badiiy qiymati aniqlanadi. To‘g‘ri tanlangan ranglar va shakllar uyg‘unligi tomoshabinda estetik taassurot, ruhiy holat va hissiy munosabat uyg‘otadi. Aynan shuning uchun rang va shakl uyg‘unligini to‘g‘ri ishlatalish rassomdan yuqori did, mahorat va tajriba

talab qiladi. Maqolada rang va shakl uyg'unligini yaratishda rassomlar foydalanadigan usullar, qonuniyatlar hamda ularning kompozitsiyadagi o'rni batafsil tahlil qilinadi. Jumladan:


- Rang kontrasti.
- Ranglarning ohangdorligi.
- Shaklning muvozanati.
- Dinamika va statika uyg'unligi.
- Yorqin va sokin ranglar o'zaro munosabati.
- Geometrik va erkin shakllarning kompozitsiyadagi roli.

Shuningdek, ranglar va shakllarning tabiatdagi, inson hayotidagi va madaniy an'anadagi o'ziga xos ramziy ma'nolari ham ko'rib chiqilgan.

Tarixda ko'plab rassomlar o'z ijodida rang va shakl uyg'unligiga alohida ahamiyat berishgan. Aynan rang va shakl orqali asarning mazmuni va hissiyotini kuchaytirgan. Quyida ana shunday mashhur rassomlar va ularning uslublari haqida batafsil ma'lumot keltiramiz. Maqolada nazariy fikrlar bilan birga, O'zbekiston va jahondagi mashhur rassomlarning asarlaridan amaliy misollar ham keltirilgan. Jumladan:



Chingiz Ahmarov "*Mevali qiz dovoni*"



Ural Tansiqboyev "*Qamchiq*"

Chingiz Ahmarovning monumental asarlaridagi rang va shakl uyg'unligi asoschisi. Raxim Ahmedovning portret va manzaralarida rang muvozanati ta'minlagan. Ural Tansiqboyevning tabiat manzaralarni aks ettirishda rang va shaklni uyg'unlashtirish usulini maromiga eykazgan, va Bahodir Jalolov va Javlon Umarbekovlar zamonaviy san'atda rang va shakl bilan tajriba qilish uslublari.

Chingiz Ahmarov (1912-1995) Rang va shakl uyg'unligi orqali o'zbek milliy obrazlarini jonlantirgan.

Rahim Ahmedov (1931-2002) Rang va shakl uyg'unligiga e'tibor berib, realistik va milliy uslubda ishlagan. Realistik va rang uyg'unligiga asoslangan portret va manzara ustasi. Shakl va rang orqali milliy obrazlarni chiroylifi aks ettirgan.

Ural Tansiqboyev (1904–1974) Rang va shakl uyg'unligini manzara janrida mahorat bilan ishlatgan.O'zbekiston tabiatini va xalq hayoti sahnalarini yorqin ranglar vositasida yaratgan.

Bahodir Jalolov (1950-y.) Zamonaviy o'zbek san'atida rang va shakl uyg'unligini yangi uslubda qo'llagan. Abstrakt va ramziy tasvirlarida yorqin ranglar va shakllar muvozanatini yaratgan.

Javlon Umarbekov (1946-y.) Rang va shakl uyg'unligi orqali milliy ruhdagi obrazlarni yaratishda mashhur. Portret va manzara janrida rang va shakl muvofiqligini yaxshi bilgan rassom.



Leonardo da Vinci "Mona Liza"



Pablo Picasso "Yig'layotgan ayol"

Leonardo da Vinci (1452-1519) — Italiya Uslubi: Realizm va garmoniyaga asoslangan rang ishlatish. Leonardo rang va shakl uyg'unligiga ilmiy va tabiiy yondashgan. Yorug'lik va soya o'yini orqali shakllarni jonlantirgan.“Mona Liza” asarida rang va shaklning mutanosibligi idealnamunadir.

Pablo Picasso (1881-1973) — Ispaniya Uslubi: Kubizm va rang-forma uyg'unligi. Picasso rang va shaklni erkinlik bilan birlashtirgan. Shakllarni geometrik ko'rinishga olib kirgan. “Avinyon qizlari” asarida rang va shakl uyg'unligi yangicha ko'rinishda namoyon bo'lган.

Henri Matisse (1869-1954) — Fransiya Uslubi: Fauvist — kuchli rang va shakl ifodasi. Matisse rangni mustaqil badiiy vosita sifatida ishlatgan. Rang va shakl uyg'unligi orqali asarlarga quvnoqlik va harakat bergen. “The Dance” asari bunga yorqin misol.

Wassily Kandinsky (1866-1944) — Rossiya Uslubi: Abstrakt san'at asoschisi Rang va shakl uyg'unligini hissiy va ruhiy vosita sifatida ko'rGAN. Rangni musiqa kabi “eshitish” va “sezish” darajasiga olib chiqqan. “Composition VII” asari rang va shakl uyg'unligi namunasi.

Vincent van Gogh (1853-1890) — Niderlandiya Uslubi: Ekspressionizm va kuchli rang tuyg'usi. Rang va shakl orqali hissiyot va ruhiy holatni ifodalagan. “Yulduzli tun” asari rang va shakl uyg'unligining kuchli namunasi.

Rang — bu asarga jon, hissiyot va kayfiyat beradi. Shakl — bu asarda tasvirlangan predmet, obraz yoki kompozitsiyaning asosiy ko'rinishi.

Rangtasvir san'atida rang va shakl uyg'unligida ko'proq e'tibor beriladigan 7 ta jihatlar: Rang va shakl uyg'unligini yaratishda rassom yoki o'quvchi quyidagi muhim tomonlarga alohida e'tibor qaratishi kerak:

1. Ranglarning mosligi (garmoniyasi)

- Ranglar bir-biriga mos va uyg'un bo'lishi kerak.
- Juda keskin, ko'zga yoqimsiz kontrastlardan saqlanish lozim.
- Iliq va sovuq ranglarning muvozanati saqlanadi.

2. Shaklning kompozitsiyadagi o'rni

- Shakllar joylashuvi tartibli va maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.
- Katta va kichik shakllar orasidagi nisbatlarga e'tibor beriladi.

3. Rang va shakl orqali mazmun ifodasi

- Har bir shakl va rang orqali muayyan g'oya yoki hissiyot yetkazilishi kerak.
- Rang va shakl tasvirlangan predmet yoki obrazning xarakteriga mos bo'lishi muhim.

4. Yorqinlik va soyalar uyg'unligi

- Ranglarning yorqinligi, och yoki to'q bo'lishi shakl xarakteriga moslashadi.
- Yorug'lik va soya yordamida shakllar aniqlashtiriladi.

5. Bo'yoqlarning to'g'ri tanlanishi

- Har bir rangning o'ziga xos energetikasi va hissiy ta'siri borligi inobatga olinadi.

- Rang aralashtirish va uyg'unlashtirish qoidalariga amal qilinadi.

6. Fon va asosiy shakl o'rtaqidagi uyg'unlik

- Fon (orqa reja) bilan asosiy shakl rang jihatidan bir-birini to'ldirib turishi kerak.

- Shakl fon ichida yo'qolib ketmasligi yoki juda keskin ajralib turmasligi lozim.

7. Simmetriya va muvozanat

- Rang va shakl kompozitsiyada estetik muvozanatni saqlashi kerak.
- Juda og'ir yoki bir tomonga og'ib ketgan ko'rinishlardan saqlanish muhim.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, rangtasvir san'atida rang va shakl uyg'unligi — bu asarning estetik ko'rinishini, mazmuni va ta'sirchanligini belgilovchi muhim unsurdir. Rang va shakl bir-birini to'ldirgan holda, rassomning g'oyasi va hissiyotini tomoshabinga yetkazishda katta ahamiyatga ega. To'g'ri tanlangan ranglar palitrasи va shakllarning mos kelishi asarga uyg'unlik, muvozanat va go'zallik beradi. Ranglarning yorqinligi, kontrasti, iliqligi yoki sovuqligi shakllarning harakatini, chuqurligini yoki tinchligini aks ettiradi. Shuningdek, rang va shakl uyg'unligi san'at asarining ichki ritmini, dinamikasini va mazmunini kuchaytiradi. Demak, rang va shakl uyg'unligi — bu nafaqat tashqi bezak, balki rassomning o'z fikri, tuyg'usi va estetik didini ifodalovchi san'at vositasidir. Uyg'unlik bo'lмаган taqdirda asar g'oya jihatidan zaif, tartibsiz va ta'sirsiz bo'lib qoladi. Shu sababli har bir rassom rang va shakl uyg'unligiga katta e'tibor qaratishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ibragimov R.Q, “The role of genres in animation” //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 1-8.

2.Ibragimov R.Q, “Possibilities of Computer Graphics and Functions”. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD), (2022). 1\2.

3.Ибрагимов Р. Анимация санъатининг тарбиявий ва психологияси муаммолари //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”. – 2023. – Т. 1. – №. 01.

4.*Ibragimov R.Q*, “The impact of colors on our behavior and health”, International engineering journal for research & Development Tom 5 Impact factor : 6.54 2021

5.*Ibragimov R.Q*, “Замонавий анимация санъатининг бадиий-инновацион ривожланиш омиллари ва ютуғлари”, *Музаллим ҳем ўзлуксиз билимлендириў.* Илмий -методикалық журналю №6 2022.121-123b

4. Elektron manbalar

O‘zbek milliy entsiklopediyasi portalı: <https://n.uz>

O‘zbek tilida maqollarni to‘plovchi elektron platformalar va ilmiy maqolalar arxivi (Google Scholar va Ziyonet).